


## 2020- yil yanvar-iyul oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent shahrida jami **10 151,3** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **101,3 %** ni tashkil etdi.




### 2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.




### Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 7,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu binolar va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **116,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,6 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **127,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,8 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **128,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,6 %**) o'sishidir.

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.08.2019- yil	01.08.2020- yil	
 <b>Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)</b>			
<b>Toshkent sh.</b>	<b>6243</b>	<b>7632</b>	<b>122,2</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	123	169	137,4
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	819	959	117,1
<b>Mirobod</b>	538	680	126,4
<b>Olmazor</b>	544	624	114,7
<b>Sergeli</b>	550	700	127,3
<b>Uchtepa</b>	399	519	130,1
<b>Chilonzor</b>	458	568	124,0
<b>Shayxontohur</b>	838	1003	119,7
<b>Yunusobod</b>	485	607	125,2
<b>Yakkasaroy</b>	833	1011	121,4
<b>Yashnobod</b>	656	792	120,7



## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining tumanlar kesimida ulushi % da 01.08.2020- yil holatiga ko'ra




**Ma'lumot uchun:** shaharda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Yunusobod tuman (13,2 %), Chilonzor tuman (13,1 %) va Mirzo Ulug'bek (12,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **2 564.9**mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **108,7 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,6 %** punktga ko'payib, **25,3 %** ni tashkil etdi.




**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi, % da**



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mirobod tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **16,8 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **72,3 %**), Yunusobod (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **16,2 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **112,5 %**), va Olmazor tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,9 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,9 %**) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2019- yil yanvar-iyul
- 2020- yil yanvar-iyul


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **65,0 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,3 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **105,7 %** ni tashkil etgan holda **6 597,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **9,7 %** ni tashkil etdi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **3,9 %** punktga kamaygan yoki **989,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **68,1 %** ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so‘m



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **293,9** mlrd. so‘m yoki 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **64,3 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **9 857,4** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati **103,1 %** ni tashkil etdi. Ularning shahardagi tutgan ulushi mos ravishda **2,9 %** va **97,1 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-iyul

77,1 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 77,1 % i yoki 7 824,3 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

76,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 1953,0 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 76,1 % ni tashkil etdi.

87,0 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 5 742,7 mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 87,0 % ni tashkil etdi.

13,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga 128,6 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 13,0 % ni tashkil etdi.





**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-iyun oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Jamiga nisbatan, % da</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>10 151,3</b>	<b>101,3</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	<b>509,7</b>	<b>100,8</b>	<b>5,0</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>1008,2</b>	<b>101,4</b>	<b>9,9</b>
<b>Mirobod</b>	<b>1029,2</b>	<b>101,6</b>	<b>10,1</b>
<b>Olmazor</b>	<b>1074,7</b>	<b>101,7</b>	<b>10,6</b>
<b>Sergeli</b>	<b>849,0</b>	<b>101,0</b>	<b>8,4</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>587,5</b>	<b>100,9</b>	<b>5,8</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>1158,5</b>	<b>101,1</b>	<b>11,4</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>871,9</b>	<b>101,3</b>	<b>8,6</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>1160,5</b>	<b>101,8</b>	<b>11,4</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>1032,4</b>	<b>101,1</b>	<b>10,2</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>869,7</b>	<b>101,2</b>	<b>8,6</b>

\*Tumanlar bo'yicha taqsimlangan hajmni qo'shgan holda



Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish  
ishlari,% da

2019- yil yanvar-iyul

20,1




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

19,6



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

60,3



Bino va inshootlarni  
qurish

2020- yil yanvar-iyul

22,0



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

17,9



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

60,1



Bino va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar-joy va yashash uchun mo`ljallangan hamda yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **14,6 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,2 %** punktga ko'payib, **73,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,4 %** punktga kamayib, **11,7 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **63,9 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **1,2 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **36,1 %** (**1,2 %** punktga o'sish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,3 %** punktga ko'paydi va **14,6 %** ni tashkil etdi. Qolgan **85,4 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **3,2 %** punktga kamaydi.





## Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % da.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Mirobod (tumandagi qurilish hajmining 42,4 % ni tashkil etdi) va Olmazor (mos ravishda 35,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



Tumanlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-iyul oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Yunusobod  
1 160,5

2

Yakkasaroy  
1 032,4

1

Chilonzor  
1 158,5

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Sergeli  
849,0

2

Bektemir  
509,7

1

Uchtepa  
587,5

3





# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

## Toshkent shahar statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

**Nashr uchun mas'ul:** D.Rustamov  
**Aloqa telefoni:** (71) 202-88-19